Sobirov Abdurasul Abdugafarovich	



KADRLAR BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1068
Urazov Sadulla Shodiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLISHDA KOMPLAENS-NAZORATNING ROLI.....	1074
Zokirov Ismoiljon Ibroximovich	
AGROSERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI	1078
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov	
KO'MIR UCHUVCHI KULI ASOSIDAGI FLY ASH BETON VA GEOPOLIMER MATERIALLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN IQTISODIY VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	1083
Muradov Botir Xayat	
КРЕАТИВНАЯ ЭКОНОМИКА В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРЕДПОСЫЛКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	1091
Рахимова Манзура Хамид кизи	
DUE DILIGENCE IN AUDITING AS A FACTOR ECONOMIC EFFICIENCY IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	1098
Sidikov Dilmurod	
MAJBURIYATLAR HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1102
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
ИННОВАЦИОННЫЕ МАРКЕТИНГОВЫЕ СТРАТЕГИИ И ПРОЦЕССЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1106
Рахимова Тамила Баходур кизи	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1113
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BORASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1120
Djurayeva Lola Abdugabbarovna	
HUDUDLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA DAVLAT BUDJETIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1125
Egamnazarova Gulnoza Xolmurod qizi	
O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI ISTIQBOLIDA BARQAROR RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI HAMDA ESG INDIKATORLARINI JORIY ETISH	1129
Mirzaaxmedova Nodira Asqarali qizi, Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi	
O'ZBEKISTONDA KREDIT VA MOLIYAVIY TIZIMNI MODERNIZATSIYALASH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	1135
Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
O'ZBEKISTON FRANCHAYZING BRENDLARINING XALQARO BOZORLARDA IMIJINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY BRENDUKLAR YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YECHIMLARI	1140
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQANING INVESTITSIYA OQIMLARI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK TAHLILI	1147
G'oyibnazarov Muhammad Xamidbekovich	
O'ZBEKISTON AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH STRATEGIYALARI VA IMKONIYATLARI	1152
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION FAOLIYATI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	1157
Xakimov Akbar Anvarovich	



TIJORAT BANKLARI XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	1162
Atamuradov Bozorboy Berdimuratovich	
O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	1168
Sayitbayev Shermirza Datkamirzaevich	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ БЮДЖЕТОВ ФТИЗИАТРИЧЕСКИХ УЧРЕЖДЕНИЙ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К ОПЛАТЕ ПО КЛИНИКО-ЗАТРАТНЫМ ГРУППАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1173
Эрматов Зоҳид Шавкатович	
SUSTAINABLE TOURISM IN KARAKALPAKSTAN: LINKING CULTURE, COMMUNITIES, AND ECOLOGY.....	1179
Indira Ermekebaeva	
TARIFLASH VA REZERVASHNING ILMIY-AMALIY MODEL (O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN).....	1184
Maxmudov Komoliddin Rozmetovich	
XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	1188
Akmalova Ziyoda Doniyorovna	
ECONOMIC EFFECTS OF GASTRONOMIC TOURISM: AN ANALYSIS OF TOURISTS' FOOD EXPENDITURE PATTERNS.....	1193
Iroda Abdieva G'ayrat kizi	
WAYS OF IMPROVING AGRITOURISM IN UZBEKISTAN	1198
Ruxangiz Mirfayzovna Mavlonova, Istamkhuja Olimovich Davronov	
TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI.....	1203
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1208
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISH: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR.....	1213
Zokirov Fayzullo Maxamatovich	
ЦИФРОВОЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПРОДВИЖЕНИЯ БРЕНДА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА НА МЕЖДУНАРОДНОМ ТУРИСТИЧЕСКОМ РЫНКЕ.....	1219
Суюнова Камилла Бахромовна, Файзуллаев Аслиддин Сафар угли	
ТЕОРИЯ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО ВЫБОРА: ОБЗОР КЛАССИЧЕСКИХ ПАРАДИГМ, МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ ПОДХОДОВ И СОВРЕМЕННЫХ ВЫЗОВОВ.....	1223
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К МОНЕТАРНОЙ ПОЛИТИКЕ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ИНФЛЯЦИЮ И ЗАНЯТОСТЬ	1227
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Асадова Шоҳида Азаматовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TAKOFUL SUG'URTA FONDLARINI SHAKLLANTIRISH.....	1232
Alimov Sherzod Choriyevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1238
Bo'taev O'tkir Eshboevich	
PUL MABLAG'LARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI.....	1242
Xalikov Baxrom Shomurovich	
O'ZBEKISTON SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA ENERGIYA TA'SIRINI QISQA VA UZOQ MUDDATLI BAHOLASH SAMARASI	1247
Jabbarov Nurbek Atanazarovich	
IQTISODIYOTDA ENERGIYA TIZIMINING TUTGAN O'RNINI MODELLASHTIRISHDA ARDL MODELINING NAZARIY AHAMIYATI	1252
Kuralbayev Jo'rabek Oybekovich	



DAVLAT TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	1256
Salamov Islom Tashkazakovich	
МЕХАНИЗМ ОПТИМИЗАЦИИ СТРУКТУРЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА.....	1263
Касимова Наргиза Сабитджановна	
SIRKULAR BIZNES-MODELLARNI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI EVOLYUTSIYASI.....	1268
Isamuxamedov Boxodir Baxramovich	
HUDUDIIY MARKETING KONSEPSIYASI ASOSIDA NAVOIY VILOYATINING EKOTURISTIK RESURLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1274
Shodiyev Sanjar Ruzukulovich, Abdurahmonova Shahlo Sherali qizi	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	1281
Sabirov Xamid Qo'ziboyevich	
HUDUDLARNI BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	1285
N.Bekmurodov	



HUDUDLARNI BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQUARISH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

N.Bekmurodov

University of Business and Science Toshkent filiali

Iqtisodiyot kafedrası professori v.b.

E-mail: n.bekmuradov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish infratuzilmasining o'ri va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar sharoitida infratuzilma, xususan agroservis xizmatlari tizimini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Infratuzilma tushunchasining mazmun-mohiyati va uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi o'ri xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, infratuzilmaning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mehnat taqsimotini chuqurlashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: hudud, barqaror iqtisodiy rivojlanish, strategiya, infratuzilma, agroservis xizmatlari, qishloq xo'jaligi, fermer xo'jaliklari, klaster, ishlab chiqarish infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilma, bozor infratuzilmasi, institutsional infratuzilma.

Abstract. This article scientifically and theoretically investigates the role and significance of agricultural production infrastructure in ensuring sustainable economic development of regions. In the context of ongoing economic reforms in agriculture, the theoretical foundations and practical importance of developing infrastructure, particularly agro-service systems, are highlighted. The concept of infrastructure and its role as an economic category are analyzed based on the scientific views of foreign and local scholars. Furthermore, the study substantiates the role of infrastructure in enhancing production efficiency, deepening labor distribution, supporting the activities of economic entities, and ensuring regional economic stability.

Key words: region, sustainable economic development, strategy, infrastructure, agro-service services, agriculture, farming enterprises, cluster, production infrastructure, social infrastructure, market infrastructure, institutional infrastructure.

Аннотация. В данной статье научно-теоретически исследована роль и значение инфраструктуры сельскохозяйственного производства в обеспечении устойчивого экономического развития регионов. В условиях проводимых экономических реформ в сельском хозяйстве освещены теоретические основы и практическое значение развития инфраструктуры, в частности системы агросервисных услуг. Содержание понятия «инфраструктура» и его место как экономической категории проанализированы на основе научных взглядов зарубежных и отечественных исследователей. Кроме того, научно обоснована роль инфраструктуры в повышении эффективности производства, углублении распределения труда, поддержке деятельности хозяйствующих субъектов и обеспечении региональной экономической стабильности.

Ключевые слова: регион, устойчивое экономическое развитие, стратегия, инфраструктура, агросервисные услуги, сельское хозяйство, фермерские хозяйства, кластер, производственная инфраструктура, социальная инфраструктура, рыночная инфраструктура, институциональная инфраструктура.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar doirasida xo'jalik yuritishning zamonaviy shakllarini,



xususan fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash va ularning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur jarayon qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi xo'jalik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma tizimini, ayniqsa agroservis xizmatlari tarmog'ini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Agroservis xizmatlari tizimi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayonida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, texnologik jarayonlarning uzluksizligini ta'minlash hamda mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, agroservis infratuzilmasining rivojlanish darajasi fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi subyektlari faoliyati samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Respublika iqtisodiyoti va hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta'minlash maqsadida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-vgustdagi PQ-3182-sonli "Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2018-yil 20-iyundagi PQ-3794-sonli "Investitsiya va infratuzilma loyihalarini jadal amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni hamda 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi farmonida qishloq xo'jaligi va infratuzilma sohasini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalarning izchil amalga oshirilishi natijasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini infratuzilmaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, agroservis xizmatlari bozorini rivojlantirish hamda hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, agroservis xizmatlari tizimini yanada rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy tadqiqotlar uchun kompleks yondashuv qo'llanilgan. Ushbu yondashuvga ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullari, shuningdek statistik guruhlash va monografik tadqiq etish kiradi. Shuningdek, dialektik yondashuv, ikki tomonlama tahlil, taqqoslash, omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun korrelyasion va regressiya tahlil usullari qo'llanilgan. Tadqiqot davomida iqtisodiy-matematik modellashirish usullari orqali hududlar va infratuzilma obyektlarining istiqbol ko'rsatkichlari hisoblangan. Shu bilan birga, empirik va nazariy tahlilning integratsiyalashgan usullari tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, bozor va ishlab chiqarish infratuzilmasining mohiyati, uning hududiy tashkil etilishi va rivojlantirish muammosi qator xorijiy olimlar – A. Veber, H. Zibert, V. Kristaller, A. Lesh, R. Ioximsen, Dj. Reys – hamda hamdo'stlik mamlakatlarida I.A. Basenko, V.A. Dobrinin, P.A. Ignatovskiy, V.I. Nosova, I.Ya. Petrenko, M.V. Saladkova, T.P. Semenov, V.N. Staxonov, I.F. Chernyavskiy, P.I. Chujinovlar asarlarida keng yoritilgan.

O'zbekistonlik olimlardan Ch. Murodov, Choriyev, Q.Q. Haqberdiyev, F.T. Egamberdiyev, Sh. Shodmonov va boshqa olimlarning ilmiy asarlarida mazkur masala tadqiq qilingan. Surxondaryo viloyatida bozor va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning hududiy muammolari A. Tursunov va T. Mardonaqulovlar tomonidan o'rganilgan.

Infratuzilma lotincha "infrastructure" so'zidan olingan bo'lib, "infra" – quyi, asos va "structure" – tuzilish, o'zaro joylashuv kabi ma'nolarini anglatadi. Infratuzilmaning shakllanishi ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish shart-sharoitlarini ta'minlovchi tarmoqlarni rivojlantirish hamda mehnat taqsimotini yanada chuqurlashtirish jarayonlari bilan bog'liqdir.

Infratuzilma tushunchasiga iqtisodiy kategoriya sifatida turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, amerikalik iqtisodchi V. Rostau infratuzilmani "aniq iqtisodiy muhit doirasida iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish uchun bosqich", ya'ni jadal iqtisodiy o'sishga imkon beruvchi kuch deb ta'riflaydi. Dj. Reys esa "infratuzilma" so'zini aniq ifodalab bo'lmaydi deb, uni qo'llamaslik g'oyasini ilgari suradi. Lekin, iqtisodiyot tarmoqlarining faoliyat yuritishi uchun talab qilinadigan barcha xizmatlarni bevosita infratuzilma tashkil etishini hisobga olsak, Reysning fikriga to'liq qo'shilib bo'lmaydi.

Sobiq ittifoq davrida infratuzilmaga kapitalistik ishlab chiqarishga xos ijtimoiy masala sifatida qaralgan, sosializm esa uning faqat ilmiy-texnik asoslari mavjud bo'lib, u ilmiy rejalashtirish orqali amalga oshirilgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, rejali iqtisodiyot va markazlashgan boshqaruv tizimiga asoslangan avvalgi socialistik ishlab chiqarish davrida infratuzilma vazifasini asosan davlat organlari, jumladan Respublika Vazirlar Kengashi, Davlat reja qo'mitasi hamda markaziy va mahalliy boshqaruv organlari bajarardi. Shu bois,



o'sha davrda bozor munosabatlariga asoslangan infratuzilma institutlari mavjud bo'lmagan. Ularning faoliyati markazlashgan rejalashtirish va boshqarish tizimi ichida amalga oshirilgan bo'lib, bozor munosabatlariga asoslangan infratuzilmalarni shakllantirish jarayonida ayrim qiyinchiliklarni yuzaga keltirgan.

Ch. Murodov R. loximsenning fikrini tasdiqlab shunday deydi: "R. loximsenning infratuzilmaga ta'rifi o'zining chuqur va to'laqonli ekanligi hamda ko'pgina xorijiy olimlarning bu boradagi fikrlarini umumlashtirganligi bilan ajralib turadi. Bu esa hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida iqtisodiy adabiyotlarda va ilmiy tadqiqotlarda infratuzilmaning mohiyatini to'g'ri tasniflashda muhim va zarur hisoblanadi".

Tahlil va natijalar

Infratuzilmaning shakllanishi ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish shart-sharoitlarini ta'minlovchi tarmoqlarni rivojlantirish hamda mehnat taqsimotini yanada chuqurlashtirish jarayonlari bilan bog'liqdir. Jahon tajribasida infratuzilma tushunchasi XX asr boshlarida birinchi bor harbiy kuchlarning to'liq faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan obyektlar va inshootlar majmuasi sifatida muomalaga kiritilgan. G'arb davlatlarida 1940-yillarga kelib infratuzilma moddiy ishlab chiqarish sohalarining faoliyatiga zarur shart-sharoit yaratuvchi tarmoq va muassasalarning yaxlit tizimi sifatida tushunilgan.

O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab O'zbekistonda olimlar infratuzilmaning nazariy va amaliy muammolarini o'rganishni boshladilar, uni ishlab chiqarish jarayonidagi yaxlit iqtisodiy tizimning zaruriy tarkibiy qismi sifatida tan oldilar. Shu nuqtai nazardan barcha huquqiy va jismoniy shaxslar, butun bir iqtisodiy tizimning faoliyatini samarali va to'xtovsiz yuritish uchun infratuzilma institutlariga ega bo'lishlari lozim. Bu obyektlar iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan muhim bo'g'in sifatida e'tirof etiladi.

Ilmiy-nazariy qarashlardan xulosa qilinsa, ishlab chiqarish jarayonining funksional tizimi hisoblangan infratuzilma majmuasi bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy kategoriya sifatida bir qator xususiyatlarni namoyon qiladi. Ya'ni:

- Birinchidan, infratuzilma majmuasida moddiy ne'matlar yaratilmasa ham, ishlab chiqarish jarayonida bevosita va bilvosita ishtirok etib, samaradorlikni oshirishga katta hissa qo'shadi;
- Ikkinchidan, mehnat taqsimoti jarayonini maqbullashtiradi va ijtimoiy muammolar, jumladan ishsizlikni kamaytirishga yordam beradi;
- Uchinchi, ishlab chiqaruvchilarni xizmat ko'rsatish vazifalaridan ozod etib, faqat ishlab chiqarish faoliyatiga e'tibor qaratish imkonini beradi;
- To'rtinchi, infratuzilma sohasiga kapital mablag'larini jalb qilish va qo'shimcha qiymat yaratishni tezlashtirish imkonini beradi.

Infratuzilma jamiyat rivojlanishining barcha bosqichlaridagi ishlab chiqarish munosabatlarining in'ikosi hisoblanadi va infratuzilmalarni rivojlantirmasdan turib iqtisodiyot sohalarida samaradorlik va barqaror o'sishga erishib bo'lmaydi. Shu bilan birga, infratuzilma tarmoqlari faqat ularni tashkil etish va rivojlantirishga mablag' sarflagan subyektlar uchun emas, balki ularning xizmatidan foydalangan boshqa xo'jalik subyektlari uchun ham qo'shimcha daromad olish imkonini yaratadi.

Bugungi kunda infratuzilma jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va nomoddiy jarayonlarini qamrab oladi, turli xizmatlarni (moliyaviy, huquqiy, texnik, axborot, ekologik va boshqa) ko'rsatish faoliyatini o'z ichiga oladi va ishlab chiqarish natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Infratuzilma majmuasi iqtisodiy munosabatlar tizimida bajaradigan vazifalari maqsadli va faoliyat yo'nalishlari nuqtai nazaridan bir qancha tarkibiy qismlarga bo'linadi va ularning integratsiyasi infratuzilma majmuasini tashkil etadi.

Infratuzilma majmuasi – moddiy ne'matlar ishlab chiqarish jarayonida bevosita (ishlab chiqarish infratuzilmasi) yoki bilvosita (ijtimoiy, bozor, institutsional, shaxsiy infratuzilmalar) qatnashib, ishlab chiqarish sharoitini va inson hayot faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi xo'jalik tarmoqlari va muassasalari majmuasidir.

Infratuzilma majmuasiga kiruvchi sohalar ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoniga turlicha ta'sir ko'rsatadi va o'ziga xos o'rin egallaydi. Shu jihatdan, infratuzilma sohalarini ularning faoliyat yo'nalishi bo'yicha tasniflash muhimdir.

A. Tursunovning fikricha, infratuzilma majmuasi to'rt xil shaklda namoyon bo'ladi:

1. Ijtimoiy infrastruktura
2. Bozor infrastruktura
3. Institutsional infrastruktura
4. Ishlab chiqarish infrastruktura


R. Xakimov, M. Otaqulov, E. Yusupov va M. Yusupov infratuzilmaning iqtisodiy fan tomonidan asosan ikki qismga – ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma yo'nalishiga bo'linishini ta'kidlaydilar.

Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Berkinov B.B., Hakimov R.X., Yusupov M.S., Oripov M.A. va N.I. O'roqovlar esa infratuzilmani ishlab chiqarishni servislashtirish sifatida ko'rib, "bozor iqtisodiyotiga asoslangan tizimning kirib kelishi bilan infratuzilmaning ko'lami kengayib, bozor infratuzilmasi va institutsional infratuzilma so'zlari ishlatilmoqda" deb e'tirof etadilar.



Ch.Murodovning ilmiy qarashlariga ko'ra, bozor iqtisodiyoti sharoitida infratuzilma 6 ta yo'nalishda – ishlab chiqarish, ijtimoiy-maishiy, institutsional, shaxsiy, ekologik va bozor munosabatlariga mos tarzda shakllanadi. Infratuzilmalarni bir-biridan ajratish va ularning mohiyatini ilmiy ta'riflash nafaqat nazariy, balki infratuzilma majmuasining iqtisodiy munosabatlar tizimida tutgan o'rnini asoslashda muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma majmuasining tarkibiy tuzilishi quyidagicha belgilanishi maqsadga muvofiqdir (1-rasm).



1-rasm. Infratuzilma majmuasining tarkibiy tuzilishi

Ishlab chiqarish infratuzilmasi moddiy iste'mol buyumlari, mahsulotlari va xizmatlari yaratuvchi tarmoqlar va korxonalarga tayyorlash, saqlash, joylashtirish, tashish, ta'minot, ta'mirlash hamda boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilot va korxonalar majmuasini tashkil etadi. Ishlab chiqarish infratuzilmasiga texnik va transport xizmatlarining barcha turlari, aloqa xizmati, elektr ta'minoti, moddiy-texnika ta'minoti, urug'lik bilan ta'minlash, texnik xizmat ko'rsatish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish obyektlari, qurilish xizmati, agrokimyo, melioratsiya, veterinariya va naslchilik xizmati, omborxona xo'jaligi va boshqalar kiradi.

Ijtimoiy-maishiy infratuzilma bevosita kishilarning ijtimoiy, ma'naviy, ilmiy va boshqa faoliyatlarini o'zaro bog'liqligini ta'minlashga xizmat qiluvchi tarmoq va subyektlar majmuasidan iboratdir. Ya'ni, unga aholini turmush tarziga bevosita bog'liq bo'lgan sog'liqni saqlash muassasalari, fan va maorif sohalari, madaniy va maishiy xizmatlar, jismoniy tarbiya va sport, aholi foydalanishidagi aloqa va transport tizimi, umumiy ovqatlanish xizmatlari, ish bilan ta'minlash va ko'maklashish bo'linmalari kiradi.

Bozor infratuzilmasi bozor iqtisodiyotini rivojlantirish va bozor munosabatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi tarmoqlarni o'z ichiga oladi. Bu turga savdo-sotiq korxonalari, birjalar, auksionlar, tashqi savdo firmalari, barcha turdagi banklar, investitsion kompaniyalar, auditorlik kompaniyalari, axborot-maslahat markazlari va sug'urta kompaniyalari kiradi.

Institutsional infratuzilma xo'jalik yuritish faoliyatini tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq bo'lgan davlat hamda huquqiy jismoniy shaxslarning tashkiliy jihatlarini o'z ichiga oladi. Unga boshqaruv xizmati, hukumat muassasalari (vazirlik va idoralar), davlat xavfsizlik va harbiy qismlari, favqulodda vaziyatlar va ichki ishlar bo'limlari, xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish muassasalari kiradi.

Ekologik infratuzilma tabiatni, atrof-muhitni, atmosferaning ifloslanishini oldini olish, fan-texnika taraqqiyoti natijasida yuzaga keladigan salbiy jarayonlarga chek qo'yish hamda cheklangan tabiiy zahiralardan samarali foydalanish bo'yicha faoliyat yurituvchi muassasalar, laboratoriyalar va ijtimoiy tashkilotlarni o'z ichiga oladi.

Shaxsiy infratuzilma iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan tovar xo'jalikning samarali vositasi bo'lgan, kishilarning ma'naviy, aqliy, tadbirkorlik, kasbiy va boshqa faoliyatlarini tashkil etuvchi "inson kapitali" sifatida namoyon bo'ladi. U mehnat taqsimotida umumxo'jalik faoliyatiga integratsiyalashuvni oshiradi va ishlarning sifatini hamda tayyorgarlik darajasini qamrab oladi.

Shu jihatdan, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarisiz amalga oshirilishi mumkin emas. Masalan, texnik xizmat ko'rsatish korxonalari, elektr quvvatini uzatish tarmoqlari yoki yo'l xo'jaligi shahobchalari ishlab chiqarish obyektlariga qulay joylashishi infratuzilmaning samarali ishlashini ta'minlaydi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishi qishloq xo'jaligi samaradorligini belgilaydi. Uning obyektlariga etarli e'tibor bermaslik ko'plab mahsulotlarning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, ishlab chiqarish infratuzilmasi ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni hal qilishda, aholini ish bilan ta'minlash va daromadlarini oshirish orqali turmush farovonligini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish



infratuzilmasini rivojlantirish ishlab chiqarish jarayonlarini jadallashtirish, mahsulot yetishtirishni ko'paytirish va samaradorlikni oshirish hamda ijtimoiy masalalarni hal qilishning muhim shartlaridan biridir.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiy kategoriya sifatida olimlar tomonidan turlicha ta'riflangan. Bir guruh olimlar uni yordamchi tarmoqlarning asosiy ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatuvchi faoliyat turlari majmuasi sifatida ta'rifladi, ikkinchi guruh olimlari moddiy boylik ishlab chiqaruvchi korxonalarning samarali ishlashini ta'minlaydigan va injener-texnika inshootlarini qamrab oladi deb tushuntiradi.

Hududlarni barqaror rivojlantirish va mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda olim B. Valiyevning fikricha, hududlar rivojlanish darajasi, muammoli hududlar mavjudligi va strategik mintaqalar aniqlangan holda siyosatlarni birlashtirish, chora-tadbirlarni aholining iqtisodiy farovonligini oshirish va hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirishga qaratish lozim. Bu ilmiy tamoyillar mintaqalarda infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Masalan, transport yo'llari, energetika tarmoqlari, ichimlik suvi va kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish orqali hududlararo integratsiya kuchayadi, iqtisodiy faollik oshadi va tafovutlar kamayadi. Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va eksportga yo'naltirishda yangi yo'llar, sug'orish tizimlari va elektr tarmoqlarini kengaytirish hududning iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu tarzda, infratuzilma orqali mintaqaviy siyosatni amalga oshirish hududlarni kompleks va mutanosib rivojlantirishga ilmiy-amaliy asos yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar asosida respublika qishloq xo'jaligida tub tarkibiy islohotlar amalga oshirildi. Xususan, yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish hamda bozor mexanizmlarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Natijada, 2017-2024-yillar davomida qishloq xo'jaligi yalpi mahsulot hajmi barqaror o'sib, tarmoqning YAIMdagi ulushi saqlanib qoldi va eksportbop mahsulotlar hajmi oshdi.

Respublika bo'yicha paxta va g'alla yetishtirishda davlat buyurtmasining qisqartirilishi hamda klaster tizimining joriy etilishi natijasida meva-sabzavotchilik, uzumchilik va chorvachilik yo'nalishlari jadal rivojlandi. Hozirgi kunda mamlakatda 400 dan ortiq paxta-to'qimachilik, meva-sabzavot va chorvachilik klasterlari faoliyat yuritib, ular orqali minglab fermer xo'jaliklari bozor tamoyillari asosida ishlamoqda. Shu bilan birga, tomchilatib sug'orish texnologiyalari joriy etilgan maydonlar yuz minglab gektarga yetkazilib, suv resurslaridan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada oshdi.

Surxondaryo viloyati misolida mazkur islohotlarning amaliy natijalari yaqqol namoyon bo'lmoqda. Viloyatning iqlim va agrosurs salohiyatidan kelib chiqib, so'nggi yillarda meva-sabzavotchilik, bog'dorchilik, subtropik ekinlar va chorvachilik asosiy ustuvor yo'nalishlarga aylantirildi. 2017-2023-yillar davomida viloyatda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi qariyb 1,5 baravarga oshdi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi esa barqaror o'sish sur'atlarini ko'rsatdi.

Viloyatda o'nlab agroklastarlar va yuzlab qayta ishlash korxonalari tashkil etilib, ular orqali minglab yangi ish o'rinlari yaratildi. Xususan, Surxondaryoda meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash quvvatlari kengaytirilib, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ulushi oshdi. Bugungi kunda viloyat qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'nlab xorijiy davlatlarga eksport qilinib, viloyat eksport tushumlarida agrar sektor yetakchi o'rinni egallamoqda.

Infratuzilma sohasida ham sezilarli natijalarga erishildi. Surxondaryo viloyatida minglab kilometr ichki xo'jalik yo'llari ta'mirlanib, qishloq hududlarining bozorlarga chiqish imkoniyati yaxshilandi. Shuningdek, ichimlik suvi va elektr ta'minoti bilan qamrab olingan qishloq aholi punktlari soni oshdi, bu esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qildi.

Shu bilan birga, respublika va Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligi rivojida ayrim tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, suv resurslarining cheklanganligi, hosildorlikning hududlar kesimida notekisligi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash darajasining yetarli emasligi mavjud salohiyatdan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va mavjud islohotlar samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Surxondaryo viloyatida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish, xususan, tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish maydonlarini keskin kengaytirish.
2. Hudud ixtisoslashuvini chuqurlashtirish, ya'ni viloyatning tabiiy-iqlim sharoitidan kelib chiqib, subtropik meva va eksportbop ekinlar ulushini oshirish.
3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini ko'paytirish va tayyor mahsulot eksportini rag'batlantirish.
4. Fermer va klasterlar faoliyatida raqamli agrotexnologiyalarni keng joriy etish, yer, suv va hosildorlik monitoringini avtomatlashtirish.



5. Qishloq hududlarida infratuzilma rivojini qishloq xo'jaligi loyihalari bilan uzviy bog'lash, bu orqali bandlik va aholi daromadlarini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-apreldagi "Qishloq xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5708-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4291908>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida" PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6600413>
4. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Toshkent: Adib nashriyoti, 2011.
5. Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent: O'qituvchi, 2002. B. 143-146.
6. Murodov Ch. O'zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida bozor infratuzilmasining rivojlanishi (Agrar sektor misolida). Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertasiya. Toshkent, 2001.
7. Valiev B.B. O'zbekistonda hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda investitsiya salohiyatini oshirishning strategik yo'nalishlari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertasiya. Toshkent, 2020.
8. Bekmurodov N. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. Monografiya. Toshkent: Bookmany Print, 2025. 160 b.
9. Bekmurodov N. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari marketing. O'quv qo'llanma. Toshkent: ZERO PRINT, 2024. 232 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>